

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi
Transport vazirining o‘rinbosari

J. E. Choriyev



2024-yil uchun

“O‘ZAERONAVIGATSIYA” MARKAZI DUK

BIZNES-REJASI

Idoraviy mansubligi: **O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi**

Yuridik (korxonaning pochta manzili): **100167, Toshkent, Lokomotivnaya ko‘chasi, 13.**

e-xat manzili: **cuan@exat.uz**

elektron manzili: **info@aeronav.uz**

STIR: **201052000**

O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK direktori - **Djumayev Doniyor Ibragimovich**

Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i – **Ananova Natalya Aleksandrovna**

MUNDARIJA

	Annotatsiya (Qisqacha ma'lumot)	3-bet
1.	“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK to‘g‘risida umumiy ma'lumot: huquqiy tashkilotchilik shakli, korxonaning asosiy funksiyalari va vazifalari, korxonaning faoliyatiga tashqi va ichki sharoitlarning ta'siri, 2024-2026 yillarga Yo'l xaritasi, 2022-2024 yillardagi korxonaning taqqoslama moliyaviy natijalari	4 – 7-bet
2.	Ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlar	7 – 16-bet
2.1.	Ishlab chiqarish ko'rsatkichlar	9 -bet
2.2.	Asosiy faoliyat bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish	10-bet
2.3.	Moliya – iqtisod ko'rsatkichlar	11– 12-bet
2.4.	Korxonaning sof daromadining taqsimlanishi	12– 13-bet
2.5.	Davlat byudjetiga to'lovlar	13– 14-bet
2.6.	Korxonaning qarzdorligi	14– 16-bet
2.6.1.	Korxonaning tashqi qarzdorligi	14–15-bet
2.6.2.	Korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari	15– 16-bet
3.	Korxonaning eksporti va importi	16– 18-bet
4.	Korxonaning Investitsiya loyihalari	18- 19-bet
5.	Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (KPI)	19– 21-bet
6.	Ish haqi	22-bet
7.	Korxonaning faoliyati samaradorligini oshirish	22-bet
<i>Biznes – rejaning Ilorvalari:</i>		
1-sonli Ilova	2024-yil uchun “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning tadbirlar Rejasi	19-varaqda
2-sonli Ilova	Asosiy faoliyatdan xizmatlarni amalga oshirish	2-varaqda
3-sonli Ilova	Korxonaning tashqi qarzlari bo'yicha ma'lumot	1-varaqda
4-sonli Ilova	Eksport istiqboli prognozi	1-varaqda
5-sonli Ilova	Parvozlar radiotexnika ta'minoti uskunalari almashtirish rejasi (aeroportlar kesimida)	5-varaqda
6-sonli Ilova	Import istiqboli prognozi	4-varaqda
7-sonli Ilova	“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning 2024-yil uchun samaradorlikni asosiy ko'rsatkichlari.	4-varaqda
8-sonli Ilova	O'rtacha ishchilar soni va ish haqi haqida ma'lumot	1-varaqda

Annotatsiya **(Qisqacha ma'lumot)**

Istalgan turdagi korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishish uchun uning faoliyatini har taraflarini o'rganish, shu asosda korxonada faoliyatidagi ijobiy va salbiy tomonlari haqida xolis fikrni shakllantirish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish imkoniyatlarini aniqlash kerak. Shu bilan birga, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalarini aks ettiradigan, uning ishini moliyaviy natijalariga va moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator asosiy ko'rsatkichlarni o'rganish lozimdir.

Biznes-rejaning maqsadi – korxonada Nizomida belgilangan maqsad va vazifalarning bajarishini ta'minlash; “O'zaeronavigatsiya” Markazi DUKning moliyaviy-ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, korxonada taqdim etayotgan xizmatlarga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda xizmatlar eksporti hajmining ko'payishi, korxonaning investitsiya dasturlarining bajarilishi va kredit majburiyatlarining qaytarilishdan iborat.

1. KIRISH

“O‘ZAERONAVIGATSIYA” MARKAZI DAVLAT UNITAR KORXONASI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Korxonasi Pasporti

Korxonaning to‘liq va qisqartirilgan nomi:	“O‘zaeronavigatsiya” Markazi Davlat Unitar Korxonasi (O‘ANM DUK)
Tashkiliy-huquqiy shakli:	Davlat Unitar Korxonasi
Tarmoq:	transport
Faoliyat turi:	aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish
Yuridik manzili:	100167, Toshkent, Lokomotivnaya ko‘chasi, 13
Ustav fondi:	1 965 956 420,57 so‘m
STIR:	201052000
Hisob raqami va xizmat ko‘rsatuvchi banki:	“ASIA ALLIANCE BANK” ATB, Amaliyot boshqarmasi Toshkent sh., MFO 01095
Umumiy yer maydoni (ga):	15,82
Bino-inshootlar maydoni (m2):	14 389,14
Ishlab chiqarish maydoni (m2):	12 745,14
Ishchilar soni:	1 330
Ishlab chiqariladigan mahsulotlar turi:	Havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish
Eksport qilinadigan mahsulotlar va davlatlar:	O‘zbekiston Respublikasi aeroportlariga qo‘nish bilan va O‘zbekiston Respublikasining havodagi kengliklarida parvozlarni amalga oshiruvchi, dunyoning barcha davlatlarini havo kemalariga aeronavigatsiya xizmat ko‘rsatish

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi Davlat Unitar Korxonasi (keyingi o‘rinlardagi matn bo‘yicha - O‘ANM DUK) davlat unitar korxonasi shakli ko‘rinishidagi tijorat tashkiloti bo‘lib hisoblanadi.

O‘ANM DUK faoliyatining asosi havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish va parvozlarni radiotexnik ta‘minoti hisoblanadi.

O‘zaeronavigatsiya” Markazi 1990-yil 16-noyabrda O‘zFAB boshlig‘ining 37-sonli buyrug‘i bilan tashkil topgan va 1991-yil 14-noyabrda 612/22-11-sonli Halq deputatlar kengashining Lenin rayoni Qarori bilan Nizomi ro‘yxatdan o‘tkazilib, 1997-yil 30-iyunda 340/4-son bilan Toshkent shahar Mirobod rayoni Hokimining Qarori bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Nizomga keyinchalik kiritilgan o‘zgarishlar va qo‘shimchalar bilan yangi tahrirdagi Nizom 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli O‘zR Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan Mirobod tumani Hokimining 2008-yil 20-avgustdagi 03001051-son Qarori bilan rasmiylashtirilgan.

2019-yil 1-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5647-sonli Farmoni bilan korxonaga O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi ixtiyoriga o‘tkazildi. Korxonaning yangi Nizomi 2019-yil 4-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi.

2021-yil 19-iyulda Transport Vazirligining 2021-yil 19-iyuldagi 137-sonli buyrug‘i bilan tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan korxonaning yangi Nizomi ro‘yxatdan o‘tkazildi.

2023-yil 10-aprelda Transport vazirligining 2023-yil 10-apreldagi 54-sonli buyrug‘i bilan kiritilgan o‘zgartirishlar korxonaga Ustaviga rasmiylashtirildi.

O‘ANM DUK mustaqil yuridik shaxs bo‘lib, o‘z faoliyatini to‘liq xo‘jalik hisob-kitob asosida, o‘z-o‘zini moliyalashtirish tartibida amalga oshiradi hamda Nizomda ko‘zda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatiga muvofiq ajratilgan mulkni fuqarolik huquqiy layoqati asosida va operativ boshqarish huquqlari negizida tasarruf etadi.

Qonunda belgilangan tartibda O‘ANM DUK o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olish va amalga oshirish, burch va javobgarlikni o‘z zimmasiga olish; sudda da‘vogar va javobgar bo‘lish; o‘z majburiyatlari uchun o‘ziga tegishli bo‘lgan barcha mol-mulk bilan javob berish; O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, davlatlararo shartnomalarga zid bo‘lmagan qarorlar qabul qilishlar bo‘yicha huquqlarning egasi hisoblanadi.

O‘ANM DUK o‘z tarkibiga O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyat aeroportlarida joylashgan tarkibiy bo‘linmalarni kiritadi, ularning asosiy faoliyati havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish, havo kemalari parvozlarni radiotexnika ta‘minoti bilan ta‘minlash va elektr aloqa bo‘yicha xizmat ko‘rsatishlardan iboratdir. O‘ANM DUK davlat unitar korxonasi bo‘linmalarining soni, yo‘nalishi, tarkibi va joylashishi hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarni hisobga olgan holda aniqlanadi va korxonaning tarkibiy sxemasi bilan o‘rnatiladi.

O‘ANM DUK mustaqil balans, bank hisoblari, shu jumladan chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini tasarruf etadi. Korxonaning xo‘jalik faoliyati O‘ANM DUKning ixtisoslashtirilgan xizmatlarini taqdim etishdan olingan o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

O‘ANM DUK parvozlarning xavfsizligini tashkil etish va muntazamligini ta’minlash sohasida davlat siyosatini ta’minlaydi, xorijiy davlatlarning havo kemalarini O‘zbekiston Respublikasi chegaralarini kesib o‘tishda umumdavlat masalalarini hal qilishda havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari (HHMQ) va harbiy havo kuchlari (HHK) bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida joylashgan alohida balansga ajratilmagan tarkibiy bo‘linmalar kiradi. “O‘zaeronavigatsiya” Markazining tashkiliy tuzilmasi va ish haqi direktor va Muassis tomonidan kelishilgan holda belgilanib o‘rnatiladi. Ish hajmining oshishi va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog‘liq holda “O‘zaeronavigatsiya” Markazi xodimlar sonini ko‘paytirmasdan, ma’lum bir ish turini bajarish uchun FHS (fuqorolik-huquqiy shartnoma) shartnomasi bo‘yicha yollash huquqiga ega.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning 2024-yil uchun Yo‘l xaritasi

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK 2024-yilga tadbirlar rejasini (Yo‘l xaritasi) ishlab chiqqan bo‘lib (**1-sonli Ilova**), ulardan eng yiriklari quyidagilar:

1. IKAO tavsiyalari asosida milliy aeronavigatsiya rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;
2. Termiz va Mo‘ynoq aeroportlarining rekonstruksiya qilishni yakunlash;
3. Toshkent, Nukus, Namangan, Qarshi, Andijon aeroportlarida PRTT uskunalari modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish;
4. Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va *boshqa tadbirlar*.

“O‘ZAERONAVIGATSIYA” MARKAZI DUKning ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

1-Jadval

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birl.	2022-y. amalda	2023-y. 9-oyi uchun amalda	2023-yilda kutilayotgan natija	2024-y. istiqbol rejasini
Bozor ulushining hajmi	%	100	100	100	100
Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxat soni	kishi	1 329	1 324	1 328	1 330
Jami HK xizmat ko‘rsatildi, <i>shu jumladan:</i>	BC	138 977	134 572	187 373	192 640
Havodagi kenlikdan tranzit foydalanish vaqtida	HK	81 808	81 425	112 493	115 656
Aerodrom hududida uchish/qo‘nishni ta’minlash vaqtida	HK	57 169	53 147	74 880	76 984
Mahsulotni (tovar, ish va xizmatlarni) sotishdan tushgan sof daromad	HK	420 896	435 028	580 037	593 000
Aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish	mln. so‘m	407 278	426 652	568 869	580 000
Umumiy xo‘jalik faoliyatidan boshqa daromadlar	mln. so‘m	70 797	49 019	63 196	64 927
Eksportning umumiy hajmidagi ulushi	%	85	87	87	87

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birl.	2022-y. amalda	2023-y. 9-oyi uchun amalda	2023-yilda kutilayotgan natija	2024-y. istiqbol rejasi
Maxsulot tannarxi (tovar, ish va xizmat)	mln. so'm	189 504	172 570	230 120	251 761
Umumiy xo'jalik faoliyatidan boshqa xarajatlar <i>shu jumladan:</i>	mln. so'm	159 528	125 235	167 148	175 372
ulardan moliya faoliyati bo'yicha xarajatlar	mln. so'm	84 157	47 184	62 912	68 377
Sof moliyaviy natija	mln. so'm	136 712	178 066	235 064	213 484

2. KORXONANING ISHLAB CHIQUARISH VA MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning asosiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- javobgarlik chegaralari doirasida havo kemalariga ko‘rsatiladigan aeronavigatsiya xizmatlari;
- aloqa xizmatlari, maxsus ko‘rik-tekshiruv vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish;
- flayt - planlarni ishlanishi bo‘yicha xizmatlar;
- aeronavigatsiya ma‘lumotlarini nashr qilish va taqdim etish bo‘yicha xizmatlar;
- uchuvchisiz uchish apparatlari parvozlarini amalga oshirish uchun buyurtmalarga ishlov berish bo‘yicha xizmatlar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa turdagi xizmatlar.

1. Havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish

Aeronavigatsiya xizmatlari xususiy va tasarrufining shakliga qaramay foydalanuvchilarning barcha toifalaridagi havo kemalariga ko‘rsatiladi va quyidagilarga bo‘linadi:

- O‘zbekiston Respublikasi havo hududidan tranzit foydalanish yo‘nalishida aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish;
- O‘z navbatida aerodrom xududida quyidagi aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish:
 - O‘zbekiston Respublikasi aerodromlarida qo‘nish bilan (yaqinlashuv) yo‘nalishida aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish;
 - O‘zbekiston Respublikasi xududida joylashgan aeroportlariga\aeroportlaridan kiruvchi\chiquvchi barcha yo‘nalishlarda parvoz\qo‘nishini ta‘minlashda aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

2. Aloqa xizmatlari

Aeronavigatsiya xizmatlarini sifatli va uzluksiz aloqa kanallari bilan ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasining barcha aerodromlarida aloqa kanallari tashkil etilgan, ya‘ni bular: radiolokatsiya ma‘lumotlarni uzatish;

radiolokatsiya va radionavigatsiya uskunalarning ishlashini nazoratini va masofadan turib boshqaruvini ta'minlovchi, radionavigatsiya uskunalarning ishlash holati xaqida axborotni havodagi harakatni boshqarish dispetcherlik punktiga uzatish; meteorologik ma'lumotlarni to'plash va foydalanuvchilarga uzatishni ta'minlovchi birinchi navbatda havodagi harakatni dispetcherlik punktida boshqarish; masofadan turib qabul qilish\uzatishni ta'minlovchi radiouuskunalari, havodagi harakatni boshqarish dispetcherlik punktlari va havo kemasi ekipaji bilan aloqani ta'minlovchi, mahkamlangan aviatsiya telegraf aloqasi (AFTN) maxsus aviatsiya ma'lumotlarini uzatish; aerodromda O'ANM bo'linmalari bilan aerodromlararo va aeroportlar o'trasida havo kemalari parvozini ta'minlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida joylashgan havodagi harakatni boshqarish dispetcherlik punktlari orasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi telefon kanallari va baland ovozli aloqa, radiolokatsiya, meteorologik, ovozli aloqa kanallari turkumi tushuniladi.

O'ANM DUK qurilgan va ekspluatatsiya qilinayotgan aloqa tarmoqlari va tizimlari quvvati tashqi korxonalar, shuningdek fuqaro aviatsiyasi parvozlarni tashkil etishda qatnashuvchi (aviakorxonalar va aeroport hududida joylashgan tashkilotlarga) shartnoma asosida qo'shimcha moliyaviy va moddiy xarajatsiz ayrim aloqa xizmatlarini ko'rsata oladi (telefon aloqasi, ma'lumotlar uzatish kanali va boshqalar).

Shuningdek, o'zining malakali muhandis-texnik mutaxassislariga ega bo'lgan "O'zaeronavigatsiya" DUK markazi shartnoma asosida o'z vakolatlari doirasida turli uskunalarga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi (parvozlarni radiotexnik qo'llab-quvvatlash).

3. Aeronavigatsiya ma'lumotlarini taqdim etish xizmatlari

"O'zaeronavigatsiya" Markazining aeronavigatsiya axborotlar xizmati (AAX) shartnoma asosida quyidagi aeronavigatsiya ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi:

- O'zbekiston Respublikasi (AIP) to'plami va unga kiritilgan tuzatishlar;
- O'zbekiston Respublikasi aerodromlari bo'yicha aeronavigatsiya axborotlar to'plami, O'zbekiston Respublikasi parvozlarni amalga oshirish Yo'riqnomasi, havo trassalari va havo liniyalari Ro'yxatiga kiritilgan tuzatishlar;
- O'zbekiston Respublikasi aerodromlari uchun (Rossiya Fuqaro aviatsiyasi aeronavigatsiya axborotlar Markazi Federal Davlat unitar korxonasi) FGUP SAI GA (RFA AAM FDUK) mahsulotning kuzatuv ma'lumotlari.

4. Flayt-rejz va HHXK ma'lumotlariga ishlov berish xizmatlari

Ushbu yo'nalishdagi xizmatlarga HK (ATM FPL) parvoz rejasiga ishlov berish va uzatish hamda HHXK standart ma'lumotlarini tarqatish (DLA, CHG, DEP, ARR, CNL va boshqalar.) kiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanishni boshqarish yagona tizimi operativ organlarining barcha manzillariga va HK yo'nalishi bo'yicha tarqatish xizmatlari HK ekipaji talabi bilan amalga oshirilishi belgilangan.

5. Uchuvchisiz uchadigan apparatlar parvozigiga ruxsat berish xizmati (UUA-BPL)

Havodagi xududidan foydalanish uchun Uchuvchisiz uchadigan apparatlar tomonidan ruxsat olishning maqsadi - foydalanuvchilar manfaati uchun O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanishda xafvsizlikni ta'minlash hisoblanadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanishni boshqarish yagona tizimi operativ organlari tomonidan e'lon qilingan faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni parvozlarda rejasiga kiritish maqsadida to'liq xabardorligi, ularni uchirish, parvozlarda rejasiga kiritilgan faoliyati haqida, axborotlarni kiritish, zarur bo'lsa, ko'rsatilgan hududda vaqtinchalik rejim yoki qisqa muddatli cheklov o'rnatishdan iborat.

2.1. ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARI

“O'zaeronavigatsiya” Markazi DUKning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi havodagi kengligidan tranzit foydalanish paytida va O'zbekiston Respublikasi aerodromlariga qo'nish bilan xizmat ko'rsatiladigan havo kemalarining sonini ifoda etadi. Bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi “O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK daromadiga har doim ijobiy ta'sir qilmaydi, chunki havo kemalari sonining ko'payishiga qaramasdan havo hududi bo'ylab uchib o'tishda qisqa masofani tanlash havo kemalari uchun aeronavigatsiya xizmatlari bo'yicha tushumlarning pasayishi va mos ravishda korxonada daromadlarining pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

O'ANM DUK ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining harakat dinamikasi

2 Jadval

Ko'rsatkich nomi	2022-y. (amalda)	2023-y. 9-oyi uchun (amalda)	Kutilayot -gan natija 2023-y.	2024-y. (reja)	Shu jumladan			
					1- chorak	2- chorak	3- chorak	4- chorak
Havo transporti xizmatlari ko'rsatish, shu jumladan	138 977	134 572	187 373	192 640	43 465	46 039	48 850	54 286
Havo kengligidan tranzit tarzda foydalanilganda (tranzit)	81 808	81 425	112 493	115 656	16 634	18 402	29 246	31 942
Havo kemalariga ko'nish va uchish xizmatlarini ko'rsatish (uchish / qo'nish)	57 169	53 147	74 880	76 984	26 831	27 637	19 604	22 344

2.2. ASOSIY FAOLIYAT BO'YICHA XIZMATLARNI AMALGA OSHIRISH

Ushbu Biznes-rejaning **2-sonli Ilovasida** O'ANM DUK tomonidan taqdim etiladigan asosiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish harakat dinamikasini ko'rsatilgan.

2023-yil natijalari bo'yicha asosiy faoliyatdan **580 mlrd. so'm** miqdorida daromad olish kutilmoqda, bu 2022-yil ko'rsatkichiga nisbatan **38%** ga yuqori. 2024-yilga **593 mlrd. so'm** miqdorida daromad olish rejalashtirilgan (2023- yilga nisbatan **2%** oshiq).

O'ANM DUK daromadlarining asosiy turi bu mulkchilik va bo'ysunishidan qat'iy nazar dunyoning barcha mamlakatlarining aviakompaniyalarini havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlarini ko'rsatishdir. Ushbu xizmat turining umumiy daromaddagi ulushi **98%** ni tashkil qiladi. 2023-yil natijalari bo'yicha **568,9 mlrd. so'mni** olish kutilmoqda, bu 2022-yil ko'rsatkichidan **40%** yuqori o'sishni bildiradi. 2024-yilga **593 mlrd. so'm** miqdorida daromad olish rejalashtirilgan (2023- yilga nisbatan **2%** o'sish).

Biroq, aeronavigatsiya xizmatiga dunyodagi siyosiy vaziyat katta ta'sir ko'rsatadi, xususan:

- 2021-yilning avgust oyidan boshlab Afg'oniston Islom Respublikasida Tolibon harakati hokimiyatga kelishi bilan Afg'oniston hududiga kirgan MILSO - Termiz - AMDAR havo yo'lagi (koridori) bo'ylab havo kemalarining reyslari deyarli to'xtatildi;

- Rossiya davlatiga sanksiyalar joriy etilishi munosabati bilan (Rossiya – Ukraina o'zaro ziddiyatining keskinlashuvi) dariy tarzda Rossiya aviakompaniyalariga havo hududida parvozlarni amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi aeroportlariga qo'nadigan havo kemalariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatish uchun to'lanadigan hisob to'lovlarini to'lashda muammolar vujudga kelmoqda.

Shu bilan birga, *Rossiya havo kengligidan foydalanish taqiqlanishi sababli* Yevropa, Kanada va Amerika aviakompaniyalari reyslarining ma'lum bir qismini O'zbekiston Respublikasi orqali yo'naltirishga majbur bo'lmoqdalar. Bu birinchi navbatda Yevropa davlatlarini Janubi - Sharqiy Osiyo davlatlarini (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya) AQSh bilan, Kanada davlatini Hindiston bilan bog'laydigan reyslarga tegishli bo'lmoqda.

Aerodrom hududida havo kemalari qatnovining o'sishi aeroportlarga bog'liqdir: aviakompaniyalar bilan yangi shartnomalar tuzishda aeronavigatsiya xizmatlari uchun ham o'z navbatida shartnomalar tuziladi.

Korxonaning umumiy daromaddagi ulushidan **2,2 %** ni tashkil etadigan asosiy faoliyatdan olingan boshqa xizmatlar uchun **11,2 mlrd. so'm** miqdorida mablag' kelib tushishi kutilmoqda. 2024-yil uchun **13 mlrd. so'mlik** daromad istiqbol prognozi rejalashtirilgan (2023- yilga nisbatan **16 foizga** o'sish).

2.3. MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR
“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning 2024-yil uchun
moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining
REJASI

3-sonli jadval
mln. so‘m

t/r	Ko‘rsatkichlar	2022-y.	2023-y. 9 oylik (amalda)	2023-y. (kutilayotgan)	2024-y. (reja)	Farqi		Su jumladan			
						(+/-)	%	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1.	Jami daromad (soliqsiz), shu jumladan:	491 694	484 047	643 233	657 927	14 694	2	167 992	164 579	157 461	167 895
	<i>sof daromad</i>	<i>420 896</i>	<i>435 028</i>	<i>580 037</i>	<i>593 000</i>	<i>12 963</i>	<i>2</i>	<i>151 760</i>	<i>148 250</i>	<i>141 229</i>	<i>151 760</i>
	<i>boshqa daromadlar</i>	<i>1 270</i>	<i>6 501</i>	<i>6 506</i>	<i>4 927</i>	<i>-1 579</i>	<i>-24</i>	<i>1 232</i>	<i>1 329</i>	<i>1 232</i>	<i>1 135</i>
	<i>moliyaviy faoliyat daromadlari</i>	<i>69 528</i>	<i>42 518</i>	<i>56 690</i>	<i>60 000</i>	<i>3 310</i>	<i>5</i>	<i>15 000</i>	<i>15 000</i>	<i>15 000</i>	<i>15 000</i>
2.	Ishlab chiqarish tannarxi	189 504	172 570	230 120	251 761	21 641	9	57 272	60 417	68 192	65 881
	<i>xom ashyo va materiallar</i>	<i>741</i>	<i>485</i>	<i>649</i>	<i>708</i>	<i>59</i>	<i>9</i>	<i>177</i>	<i>177</i>	<i>177</i>	<i>177</i>
	<i>energiya resurslari</i>	<i>2 326</i>	<i>1 747</i>	<i>2 329</i>	<i>2 540</i>	<i>211</i>	<i>9</i>	<i>696</i>	<i>696</i>	<i>696</i>	<i>697</i>
	<i>xodimlar ish haqi</i>	<i>126 875</i>	<i>115 437</i>	<i>153 915</i>	<i>165 000</i>	<i>11 085</i>	<i>7</i>	<i>38 300</i>	<i>39 600</i>	<i>45 850</i>	<i>41 250</i>
	<i>Yagona ijtimoiy to‘lov</i>	<i>15 252</i>	<i>13 881</i>	<i>18 508</i>	<i>19 800</i>	<i>1 292</i>	<i>7</i>	<i>4 596</i>	<i>4 752</i>	<i>5 502</i>	<i>4 950</i>
	<i>asosiy vositalar (nomoddiy aktivlar) amortizatsiyasi</i>	<i>25 732</i>	<i>25 742</i>	<i>34 322</i>	<i>40 000</i>	<i>5 678</i>	<i>17</i>	<i>8 581</i>	<i>9 110</i>	<i>10 021</i>	<i>12 289</i>
	<i>Boshqa xarajatlari</i>	<i>18 578</i>	<i>15 278</i>	<i>20 397</i>	<i>23 713</i>	<i>3 316</i>	<i>16</i>	<i>4 922</i>	<i>6 082</i>	<i>5 946</i>	<i>6 518</i>
3.	Davr xarajatlari	75 371	78 051	104 236	106 995	2 719	3	26 339	26 413	73 038	85 879
	<i>sotish xarajatlari</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>
	<i>ma‘muriy xarajatlari</i>	<i>9 983</i>	<i>10 505</i>	<i>14 007</i>	<i>14 998</i>	<i>991</i>	<i>7</i>	<i>3 366</i>	<i>3 765</i>	<i>4 133</i>	<i>3 734</i>
	<i>boshqa operatsiya xarajatlari, shu jumladan:</i>	<i>65 388</i>	<i>67 545</i>	<i>90 229</i>	<i>91 997</i>	<i>1 768</i>	<i>2</i>	<i>22 973</i>	<i>22 647</i>	<i>23 112</i>	<i>23 264</i>
	<i>homylik va beg‘araz yordamlar</i>	<i>10</i>	<i>29</i>	<i>29</i>	<i>29</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>0</i>	<i>10</i>	<i>19</i>	<i>0</i>
4.	Moliyaviy faoliyat xarajatlari	84 157	47 184	62 912	68 377	5 465	9	17 161	17 161	17 027	17 027
	<i>foizlar shaklidagi xarajatlari</i>	<i>5 441</i>	<i>3 307</i>	<i>4 410</i>	<i>3 377</i>	<i>-1 033</i>	<i>-23</i>	<i>911</i>	<i>911</i>	<i>777</i>	<i>777</i>
	<i>valyuta kursi farqidan zararlar</i>	<i>78 716</i>	<i>43 877</i>	<i>58 502</i>	<i>65 000</i>	<i>6 498</i>	<i>11</i>	<i>16 250</i>	<i>16 250</i>	<i>16 250</i>	<i>16 250</i>
5.	Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	142 661	186 242	245 966	230 794	-15172	-6	67 220	60 588	44 996	57 989
6.	Foyda solig‘i	5 950	8 176	10 902	17 310	6 408	59	5 042	4 544	3 375	4 349
7.	Sof foyda/zarar	136 711	178 066	235 064	213 484	-21580	9	62 179	56 044	41 622	53 640
8.	EBIT ko‘rsatkichi * mln. so‘m/%	247 886	209 146	285 000	824 683	539 683	189	573242	79 190	73 484	98 766
9.	Debitorlik qarzdorligi	134 022	153 440	192 350	183 594	-8 756	-5	172 604	209 924	179 670	183 594
10.	Kreditorlik qarzdorligi	7 948	24 537	26 460	25 612	-848	-3	26 644	144 963	25 022	25 612

2024 -yilda xarajatlarning o‘shish suratlari 2023-yilgining kutilayotgan ko‘rsatkichlariga mos ravishda quyidagi nisbatda prognoz qilinmoqda:
 - tannarx - **9 %**;

- davr xarajatlari 3 % ga o'sish.

Sof moliyaviy natija - foyda **213** mln. so'm miqdorida prognoz qilinmoqda.

2.4. SOF FOYDANI TAQSIMLASH SOF FOYDA / SOF ZARARNI TAQSIMLASHI

4-jadval
mln. so'm

t/r	Yo'nalishlar	Ulushi, %	2022-y.	2023-y. (kutilayotgan)	2024 y. (reja)	Shu jumladan			
						1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
Sof foyda		100%	136 711	235 064	213 484	62 179	56 044	41 622	53 640
1.	Dividendlar bo'yicha jami, shu jumladan	-	-	-	-	-	-	-	-
	Imtiyozli aksiyalarga	-	-	-	-	-	-	-	-
	oddiy aksiyalarga, shundan:	-	-	-	-	-	-	-	-
	davlat ulushiga	50%	68 356	117 532	106 742	-	-	-	-
2.	Innovatsiya rivojlantirish fondiga	-	-	-	-	-	-	-	-
3.	Zaxira fondiga	40% / 25%	54 684	58 766	53 371	-	-	-	-
4.	Korxonani rivojlantirish uchun	-	-	-	-	-	-	-	-
5.	Boshqa maqsadlarga	10% / 25%	13 671	58 766	53 371	-	-	-	-

2022-yil yakunlariga asosan korxonaga bo'yicha **136,71 mlrd. so'm** miqdorida foyda kelib tushdi.

“O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 30.12.2022-yildagi O‘zR Q 813-sonli Qonunga muvofiq “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK 2022-yilda olingan korxonaning sof foydasidan Davlat budjetiga **50% dan kam bo‘lmagan, ya’ni 68,36** mlrd. so‘m miqdorida dividendlarning to‘lanishini amalga oshirdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Presidentining 27.11.2018-yildagi PF-5584-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2019-yildagi 429-sonli Qarori asosida sof foydaning **5% (13,67 mlrd. so‘m)** O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda Fuqoro Aviatsiyasi agentligiga, qolgan 40 % (**54,68 mlrd. so‘m**) “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK zaxirasiga Termiz, Mo‘ynoq va Toshkent aeroportidagi PRTT uskunalari va aeroportlarni modernizatsiya qilinishiga yo‘naltirildi.

2024-yilga prognoz istiqboli: 2023-moliya yili yakunlari bo'yicha olingan foyda quyidagi tartibda taqsimlanishi rejalashtirilmoqda: 50% - Davlat budjeti,

5% - O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, 20% - Fuqaro Aviatsiyasi agentligi hamda 25% - O'zbekiston Respublikasi aeroportlaridag PRTT uskunalarining tiklash va modernizatsiya qilish maqsadida zaxira jamg'armasiga taqsimlanadi (Biznes-rejaga 5-sonli Ilova).

2.5. DAVLAT BYUDJETIGA TO'LOVLAR

5-sonli Jadval
mln. so'm

t/r	To'lovlar	2022-y.	2023-y. 9 oylik (amald a))	2023-y. kutlayot gan natija)	2024-y. (reja)	farqi		Shu jumladan			
						+/-	%	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Jami	50 321	48 350	64 082,3	83 253,6	19171,3	30	21 107,4	20 959,4	19 945,4	20 241,4
1.	Bilvosita soliqlar, Shu jumladan:	-3 570	-4 866	-6 488	-6 600	-13 080	-	-1 650	-1 650	-1 650	-1 650
	QQS	-3 570	-4 866	-6 488	-6 600	-13 080	-	-1 650	-1 650	-1 650	-1 650
	Aksiz	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
2.	Yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
3.	Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq	1	0,8	1,0	1,2	0,2	20	0,3	0,3	0,3	0,3
4.	Foyda solig'i	5 950	8 176	10 902	17 310	6 408	59	5 042	4 544	3 375	4 349
5.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalari va ijtimoiy soliq	43 046 21 771+ 21 275	42 545 21 538 + 21 007	56 727	68 072	11 345	20	16 850	16 900	17 050	17 272
6.	Mol-mulk solig'i	549	377	552	570	18	3	140	140	145	145
7.	Yer solig'i	712	666	888	900	12	1	225	225	225	225
8.	Aylanma mablag'lardan olinadigan soliq	x	X	x	x	x	x	x	x	x	x
9.	Davlat boji va yig'imlar	3 631	1 451	1 500	3 000	1 500	10 0	500	800	800	900
10.	Boshqa soliqlar	2	0,2	0,3	0,4	0,1	33	0,1	0,1	0,1	0,1

“O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK quyidagi umumdavlat soliqlarining to'lovchisi bo'lib hisoblanadi:

1. Daromad solig'i;
2. To'lov manbasidan norezidentlar daromadidan yuridik shaxslarning daromad solig'i;
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
4. Yagona ijtimoiy to'lov;
5. Qo'shilgan qiymat solig'i (to'lovchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi 2018 yil 17 noyabrdagi № 326010005092 guvohnoma);
6. Tovarlar (xizmatlar)ni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i;
7. Mulk solig'i;
8. Yer solig'i;
9. Suv resurslaridan foydalanishga solinadigan soliq.

Yuqorida ko'rsatilgan soliqlarni hisoblash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq Kodeksiga muvofiq Korxonaga quyidagi imtiyozlardan foydalanadi:

- *qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha:*

263-moddaning 5-bandiga muvofiq, xalqaro tashuvlar bilan bog'liq xizmatlarni bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo kengliklarida xorijiy havo kemalariga, shu jumladan, ayeronavigatsiyani kiritish bilan, havo kemalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshirishda soliq solish nol stavka bo'yicha amalga oshiriladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ining miqdori ularning umumiy muomaladagi soliq solinadigan aylanmasining salmog'iga qarab proporsional uslub bilan aniqlanadi;

- *yer solig'i bo'yicha:*

429-moddasi 6-qismiga asosan soliq stavkalariga uchish-qo'nish yo'laklari, rullashtirish yo'laklari va HK to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yer uchastkalari uchun pasaytiruvchi koeffitsient qo'llaniladi;

- *mulk solig'i bo'yicha:*

415-moddaning 4-qismiga muvofiq, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalariga, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarga nisbatan soliq stavkasi qo'llaniladi;

- *daromad (foyda) solig'i bo'yicha:*

337-moddaning 6-bandi va 8-qismiga muvofiq, eksport uchun tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olingan foydani soliqqa tortish nol stavka bo'yicha amalga oshiriladi.

2.6. KORXONANING QARZDORLIGI

2.6.1. KORXONANING TASHQI QARZDORLIGI

3-sonli Ilovada korxonaning tashqi qarzdorligi ko'rsatilgan.

“O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK “Aleniya Markoni Sistemz” (Italiya) va “O'zbekiston havo yo'llari” MAK o'rtasida tuzilgan kontrakt bo'yicha kredit majburiyatlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 17.12.1996-yildagi UZB-P3 hamda 14.12.1996-yildagi UZB-P5 va JBIK (Yaponiya) kontraktlarini moliyalashtirish hukumat kafolati bo'yicha amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2018-yildagi “O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5584-sonLI Farmoniga binoan JBIC banki (Yaponiya xalqaro hamkorlik banki) Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi aylantirilganligi munosabati bilan agentlik shartnomasi qayta rasmiylashtirildi. Agentlik kelishuvlariga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq “O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK 2-sonli Ijrochi Agent sifatida “O'zbekiston havo yo'llari” MAK

(“Uzbekistan Airways” AJ) barcha majburiyatlarini 57,35% ga teng ulushda o‘z zimmasiga olgan.

Kredit bo‘yicha to‘lovlar 2029-yilga qadar hisob-kitoblar jadvaliga asosan amalga oshirilib boriladi.

Ma’lumot uchun:

- **2024-yilda 539,75** yapon iyenasi miqdorida to‘lov o‘tkazilishi belgilangan,

shu jumladan:

- 2024-yil iyun oyida **271,49** million yapon iyenasi;

-2024-yil dekabr oyida **268,26** million yapon iyenasi.

2.6.2. O‘ANM DUKning kreditorlik va debitorlik qarzdorliklari

6-sonli Jadval
mln. so‘m

t/r	Ko‘rsatkichlar	Hisobot davrining boshiga	Shu jumladan			
			01.04.2024y.	01.07.2024y.	01.10.2024y.	01.01.2025y.
1.	Jami debitorlik qarzdorlik , <i>shu jumladan:</i>	192 351	172 604	209 924	179 670	183 594
	<i>muddati o‘tgan qarzdorlik, shundan</i>	520	574	619	649	531
	<i>umidsiz qarzdorliklar</i>	-	-	-	-	-
2.	Jami kreditorlik qarzdorlik , <i>shu jumladan:.</i>	26 460	26 644	144 963	25 022	25 612
	<i>muddati o‘tgan qarzdorlik</i>	-	-	-	-	-

Ushbu muddati o‘tgan debitorlik qarzdorliklar O‘zbekiston Respublikasi havo kengligida tranzit parvozlarini amalga oshirgan xorijiy aviakompaniyalarning ko‘rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlari uchun to‘lovlar to‘lanishini amalga oshirilmaganligi natijasida hosil bo‘lgan.

Jahon amaliyotiga muvofiq har qanday davlatning havo hududidan tranzit foydalanish bo‘yicha aeronavigatsiya xizmatlarni taqdim etish shartnomalarsiz asosda olib boriladi. Hech bir davlat ko‘rsatilgan xizmatlar uchun 100% mablag‘lar tushumi kafolati ega emas. Jahon amaliyotida aeronavigatsiya xizmatlari uchun to‘lov foizlari 98-99% ko‘rsatgichini tashkil qiladi.

Havo hududidan tranzit foydalanish paytida ko‘rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlar uchun tushumlarning kelib tushmasligi aviakompaniyalarning bankrotligi, Aviakompaniya ekspluatantni Sertifikatidan mahrum qilinish, havo kemasi lizingining tugashi, aviakompaniya parvozlari geografiyasining o‘zgarishi va havo kemasi halokati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Eurocontrol tashkiloti (Yevropaning aeronavigatsiya xavfsizligi tashkiloti) (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabrdagi PF-5584-sonli qarori, 16-band, 3-xat boshi) “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning O‘zbekiston Respublikasi havo hududidan tranzit foydalanishda aeronavigatsiya xizmatlari uchun yig‘imlarni undirish bo‘yicha Agenti bo‘lib hisoblanadi. Evrokontrolning funktsiyaal majburiyatlariga “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUKning nomidan aviakompaniyalarga to‘lov-hisob hujjatlarini taqdim etish, ko‘rsatilgan xizmatlar

uchun mablag'larni yig'ish va o'tkazib berish, to'lov muddatini kechiktirayotgan aviakompaniyalarga da'vogarlik bilan murojaat qilish kiradi.

O'z navbatida, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK mavjud bo'lgan muddati o'tgan debitorlik qarzlari bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rmoqda:

- qarzdor-aviakompaniyalarga aeronavigatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'xtatilmoqda;
- qarzdor-aviakompaniyaga nisbatan da'vo bilan murojaat qilinmoqda;
- aviakompaniyalari qarzdor bo'lgan davlatlarning aviatsiya ma'murlari bilan tegishli yozishmalar olib borilmoqda;
- ushbu masalani hal etishda yordam berish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, aviakompaniyalari qarzdor bo'lgan davlatlarning elchixonalari jalb qilingan.

Mahalliy (yoki xalqaro) advokatlarni yollash "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK uchun qarzdorlar xorij aviakompaniyalari bo'lishi sababli quyidagi ortiqcha ishlab chiqarish xarajatlariga olib keladi: xizmatlar uchun to'lovlar, aviachiptalar va xizmat safari xarajatlari, sud xarajatlari. Ko'p holatlarda qarz miqdori yuqorida sanab o'tilgan xarajatlardan ancha past. Shuningdek, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUKning ishlab chiqarish faoliyati kunu-tun davomida to'xtovsiz amalga oshiriladi va korxonadan qarzdor aviakompaniyalarning havo kemalariga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha xarajatlari talab qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018-yildagi PF-5584-sonli Farmoniga asosan "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUKga O'zbekiston Respublikasining havo kengligidan tranzit foydalanishda ko'rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlari uchun xorijiy aviakompaniyalarning kechiktirilgan debitor qarzdorligini aeronavigatsiya xizmatlari ko'rsatilganligi tasdiqlangan vaqtdan boshlab, 12 oy davomida undirish huquqini berish belgilangan. Bunda, O'zbekiston Respublikasi havo kengligidan tranzitda foydalanishda ko'rsatilgan aeronavigatsiya xizmatlari uchun xorijiy aviakompaniyalarning muddati o'tgan debitorlik qarzlari undirish imkoni bo'lmagan taqdirda keyingi 12 oy ichida "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK muddati o'tgan debitorlik qarzlari uchun jarima sanksiyalarini qo'llashdan ozod etiladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.03.2020-yildagi PF-5971-sonli Farmoni tahriridagi kichik bandi).

"O'zaeronavigatsiya" Markazi DUKda muddati o'tgan debitorlik qarzlari tugatish bo'yicha ishlar doimiy ravishda olib borilib, korxonaga rahbariyatining doimiy nazoratiga olingan.

Korxonaning muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emas.

3. KORXONANING EKSPORTI VA IMPORTI

3.1. XIZMATLAR EKSPORTI

"O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK asosiy eksporti - O'zbekiston Respublikasining havo hududida (O'zbekiston Respublikasi hududi ustidan parvoz etib uchib o'tuvchi) rezident bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida

qo‘nish bilan parvozlarni amalga oshiruvchi aviakompaniyalarga aeronavigatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK malakali mutaxassislar va zamonaviy radiotexnika uskunalarga ega bo‘lib, havo kemalari parvozlarni ta‘minlash uchun dunyoning turli aviakompaniyalarining barcha havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatni **to‘liq taqdim etishga doimiy ravishda tayyordir.**

O‘zbekiston Respublikasining havo kengligidan tranzit foydalanishda havo kemalariga aeronavigatsiya xizmat ko‘rsatish:

Xizmatlar shartnomalarsiz tartibda taqdim etiladi, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar Yevropa Parvozlari Xavfsizligi Tashkiloti (EUROCONTROL) tomonidan “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK va EUROCONTROL o‘rtasida tuzilgan Agentlik shartnomasi asosida olinadi.

“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK, aviakompaniyalarga O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha qulay yo‘nalishlarni taqdim etadi, ammo tanlov quyidagilardan kelib chiqib, **aviakompaniya ixtiyorida qoladi:**

- Qo‘shni davlatlarning havo hududida cheklangan zonalarining mavjudligi. (Misol: Rossiya/Qozog‘iston hududidagi “Kapustin yar” poligoni. Aviakompaniyalar tranzit oqimi uzunligi ming kilometrdan ortiq bo‘lgan hudud bo‘ylab Havo Kemalari qatnovlari uchun taqiqlangan zonani aylanib o‘tishga majbur va natijada tranzit oqimi Kaspiy dengizi orqali O‘zbekistonning g‘arbidan o‘tib ketadi);
- Davlatlarning aviatsiya organlari o‘rtasida kelishuvlarning mavjud emasligi;
- Jahon iqtisodiy inqirozi oqibatida havo hududdan foydalanuvchilar sonini kamayishi (aviatsiya tashuvlar tariflarining o‘sishi, aviatsiya kerosinining narxini oshishi);
- Iqlim omillari (shamol yo‘nalishi va tezligi kreyser eshelonlarida o‘zgarishi, vulqonlik faoliyati va boshqalar) tufayli O‘zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanuvchilar tomonidan parvozlari yo‘nalishlarini o‘zgartirishi;
- “COVID – 19” pandemiyasi dunyoning ko‘plab aviakompaniyalarining bankrotligiga olib keldi va aeronavigatsiya xizmatlari provayderlarining faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, muntazam yo‘lovchilarni aviatashuvi deyarli butunlay to‘xtatildi;
- Dunyodagi siyosiy vaziyatlarining o‘zgarishi.

Uchish/qo‘nishni ta‘minlash vaqtida havo kemalariga aeronavigatsiya xizmat ko‘rsatish.

Ushbu xizmatlar norezident-aviakompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida taqdim etiladi, ular norezident aviakompaniya aeroport bilan yerdagi xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzishdan so‘ng faqat amalga oshiriladi.

4-sonli Ilovada xizmatlar eksporti bo‘yicha prognoz qilingan ko‘rsatkichlar keltirilgan.

2023-yil natijalariga asosan **37 989 ming AQSh dollari** miqdorida eksport xizmatlarini ko‘rsatish rejalashtirilgan (2022-yilga nisbatan **26%**, belgilangan istiqbol prognoziga nisbatan **26%** o‘sish), shu jumladan:

- uchish-qo‘nishni ta‘minlashda – **13 463 ming AQSh dollari** (2022-yilga nisbatan **17%**; belgilangan istiqbol prognoziga nisbatan **16 %** o‘shish);
 - havo kengligidan tranzit foydalanishda – **24 526 ming AQSh dollari** (2022-yilga nisbatan **33%**, belgilangan istiqbol prognoziga nisbatan **33%** o‘shish).
- 2024- yil uchun aeronavigatsiya xizmatlari eksporti prognozi – **34 800 ming AQSh dollari** (kutilayotgan 2023-yilga nisbatan **8%** pasayish), shu jumladan:
- uchish-qo‘nish xavfsizligini ta‘minlashda – **11 700 ming AQSh dollari** (kutilayotgan 2023-yilga nisbatan **13%** pasayish);
 - havo kengligidan tranzit foydalanishda – **23 100 ming AQSh dollari** (kutilayotgan 2023-yilga nisbatan **6 %** pasayish).

Izoh:

1. Shuni hisobga olish kerakki, reyslar xorijiy aviakompaniyalar tomonidan qayta tiklanganda va ularning reyslari ko‘paytirilganda, milliy aviatashuvchi yo‘lovchilarni qisman yo‘qotadi. Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi aviakompaniyalarining xalqaro yo‘nalishlargagi reyslarining ko‘payishi o‘z navbatida aeronavigatsiya xizmatlari eksportining pasayishiga olib keladi.

2. Ko‘pgina aviakompaniyalar bugungi kunda havo kemalarning turlarini yengilroq turiga o‘zgartirmoqda, bu esa havo kemalariga xizmat ko‘rsatish uchun aeronavigatsiya va aeroport yig‘imlariga ta‘sir qilmoqda.

Malumot uchun: reys narxini hisoblashning asosiy omillari havo kemasining maksimal uchish og‘irligi (uchish / qo‘nishni ta‘minlash va tranzit parvozlari vaqtida havo kemasining uchish massasi va masofasi) bo‘lib hisoblanadi: Havo kemasi qancha yengil bo‘lsa, reys narxi shuncha past bo‘ladi.

3.2. O‘ANM DUK IMPORTI

Korxonaning importi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan (taqdim etilmaydigan) uskunalar va xizmatlarni sotib olishdan iborat.

Sotib olinadigan xizmatlar bo‘yicha shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tanlov/tender asosida tuziladi.

6-sonli ilovada xizmatlar importining prognoz ko‘rsatkichlari keltirilgan.

4. PARVOZLAR RADIOTEXNIKA TA‘MINOTI USKUNALARINI ALMASHTIRISH REJASI (aeroportlar kesimida)

O‘ANM DUK balansi hisobidagi parvozlarda radiotexnika ta‘minoti uskunalari (keyingi o‘rinlarda - PRTT) O‘zbekiston Respublikasi havo kengligi va aeroportlarining aerodromlarida havo kemalari parvozlarni xavfsizligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Ushbu uskunalarning eskirish foizi **74 %** ni tashkil etadi. PRTT uskunalarni yangilash uchun aeroportlar kesimida Uskunalarini bosqichma-bosqich almashtirish (xarid qilish) rejasi ishlab chiqildi (**5-sonli Ilova**).

Uskunalarini almashtirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilishini yagona maqsadi havo kemalari parvozlarning xavfsizligi va muntazamligini ta‘minlashdan

iborat bo'lib, korxonadan tomonidan qo'shimcha daromadlarning olinishiga ta'sir qilmaydi.

O'ANM DUK ishlab chiqarish zaruriyati hamda topshiriqlarning amalga oshirishini hisobga olgan holda Uskunalarini bosqichma-bosqich almashtirish (xarid qilish) rejasiga pul mablag'larining belgilangan miqdori chegarasida o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

5. SAMARADORLIKNING MUHIM KO'RSATKICHLARI (KPI)

7-sonli Ilovada korxonaning muhim samaradorlik prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

“Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida”gi Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son Qarorining Ilovasi) muvofiq korxonada samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini (keyingi o'rinlarda - SMK) ishlab chiqishi lozim. SMK korxonaning moliyaviy hisoboti va prognoz ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqiladi.

Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari **korxonada samaradorligini aniqlash uchun** ishlatiladigan va miqdori aniqlanishi mumkin bo'lgan, quyidagi baholash mezonlarini namoyon qiladi:

1. Asosiy SMK

1.1. Amalga oshirishdan (realizatsiya) sof tushum prognozini bajarish (ming so'm) –korxonaning moliyaviy holatini tavsiflaydi, sotish hajmini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan olingan pul miqdorini, ko'rsatilgan xizmatlarni, bajarilgan ishlarni ko'rsatadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **593 000 000 ming so'm**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **15**.

Ko'rsatkichni o'zgarish dinamikasida va biznes-reja bilan taqqoslashda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.2. Sof daromad (zarar) prognozini bajarish (ming so'm) - tashkilot faoliyatining natijasini ko'rsatadi va ushbu turdagi faoliyatni amalga oshirish qanchalik foydali ekanligini ko'rsatadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **213 484 000 ming so'm**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **15**.

Ko'rsatkichni o'zgarish dinamikasida va biznes-reja bilan taqqoslashda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.3. Aktivlar rentabelligi (%) - tashkilotning moliyaviy va iqtisodiy faoliyatining rentabelligi (zarari) darajasini ko'rsatadi. Hisobot davrida rentabellik koeffitsiyentlari noldan (minus ko'rsatkichidan) pastroq bo'lsa, tashkilot zarar ko'rayotgan deb hisoblanadi; 0,05 dan past qiymatga ega bo'lsa, tashkilot kam daromadli hisoblanadi (*monopolist korxonalar bundan mustasno*).

Prognoz ko'rsatkichi = **0,34** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **8**

1.4. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti - korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini yuklab olish darajasini tavsiflaydi, mahsulotning haqiqiy hajmini eng yuqori darajaga (ijaraga olingan va zahiralangan quvvatlarni hisobga olmagan holda) nisbati sifatida ifodalanadi. Hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti 0,5 yoki o'rta tarmoqdan past bo'lsa, unda ushbu tashkilot ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning past darajasiga ega deb belgilanadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **192 640** ta havo kemalariga, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **8**

1.5. Qoplama koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati) - tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarining to'lash imkoniyatlarini ko'rsatadi, bunda faqatgina qarzdorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitoblar va tayyor mahsulotni qulay sotish bilan emas, balki joriy (aylanma) aktivlarning boshqa elementlari bilan ham baholanadi. Ushbu koeffitsiyentning eng kam qiymati – 0,2. Hisobot davrining oxirida to'lov qobiliyati koeffitsiyenti 1,25 dan past bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha tashkilot to'lovga layoqatsiz hisoblanadi. Koeffitsiyentning pasayishi tashkilotning to'lov imkoniyatlarini kamayishni ko'rsatadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **10,16** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **13**

1.6. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti - qisqa muddatli qarz mablag'larining o'z manbalari bilan qaytarilishi bilan ta'minlanganlik darajasini belgilaydi. Hisobot davrining oxirida o'zining va qisqa muddatli qarz mablag'larining koeffitsiyent nisbati 1 dan kam bo'lsa, bu tashkilotning moliyaviy xavfining mavjudligini ko'rsatadi. Koeffitsiyentning pasayishi tashkilotning moliyaviy xavfini oshiradi.

Prognoz ko'rsatkichi = **21,46** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **13**

1.7. Eksport parametrlarini bajarish ko'rsatkichi (belgilangan vazifaga nisbatan % da) - maqsadli ko'rsatkich (prognoz) tegishli davlat dasturi yoki korxonaning vakolatli boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **34 800 ming AQSh dollari**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **15**

1.8. Chet el valyutasidan mustaqillik koeffitsiyenti – import va eksport nisbatini bildiradi. Import qilinadigan tovarlar uchun to'lovlar tovarlar eksporti bilan qoplanganligi darajasini ko'rsatadi. Mazkur qiymat 1 dan kam bo'lsa ijobiy, 1 dan ortiq bo'lsa salbiy bo'ladi.

Prognoz ko'rsatkichi = **0,24** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **13**.

2. Qo'shimcha SMK

2.1. Foizlar, soliqlar, eskirish va amortizatsiyalar chegirilmagan foyda miqdori (EBITDA - Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha hisobotlarni chop etishga o'tishdan keyin to'ldirilishi belgilangan. Tashkilotga qarz hajmining ko'rsatkichi bo'lib, sof pul oqimi bilan kreditorlarga qarzini to'lash qobiliyatini tavsiflaydi. Umuman, ushbu ko'rsatkich qanchalik baland bo'lsa, tashkilot shunchalik samara bilan ishlaydi deb yuritiladi.

Prognoz ko'rsatkichi = **824 683 171 ming so'm**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **30**.

2.2. Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR - Cost Income Ratio). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha hisobotlarni chop etishga o'tishdan keyin to'ldiriladi. Daromad bilan bog'liq amaliyot jarayon xarajatlari (savdo xarajatlari, savdo va boshqaruv xarajatlarini o'z ichiga olgan) nisbatlarini bildiradi. Umuman, ushbu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, tashkilot shunchalik samara bilan ishlaydi deb yuritiladi.

Prognoz ko'rsatkichi = **0,60** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **15**.

2.3. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti – bu ko'rsatkich tashkilot likvidligining eng qat'iy mezonidir va qisqa muddatli qarz majburiyatlarining zaruriyatli qismini darhol to'lash mumkinligini ko'rsatadi. Me'yori 0,2 dan kam emas darajada belgilangan.

Prognoz ko'rsatkichi = **2,0** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **20**.

2.4. Kreditorlik qarzdorligi aylanmasi (kunlarda) - ushbu koeffitsiyent tashkilotning kreditorlik qarzining o'rtacha qiymatini necha kunga to'lashini ko'rsatadi. Uning yuqori qiymati tashkilotga hozirgi faoliyatni shartli ravishda bepul moliyalashtirish manbai sifatida to'lanmagan qarzlar kreditorlik qoldig'iga ega bo'lish imkonini beradi.

Prognoz ko'rsatkichi = **16 kun**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **5**.

2.5. Debitorlik qarzdorligi aylanmasi (kunlarda) - tashkilotning debitorlik qarzlarini to'lash tezligini, tashkilot o'z mijozlaridan sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni qanchalik tez qabul qilishini o'lchaydi. Umuman, qiymat qanchalik past bo'lsa, ya'ni xaridorlar qanchalik tez o'z qarzlarini to'lasa, bu tashkilot uchun shunchalik ijobiy hisoblanadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **116 kun**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **5**.

2.6. Xodimlarni o'qitib tayyorlash xarajatlari (har bir xodim uchun) - xodimlarni o'qitish xarajatlarini xodimlarning o'rtacha soniga nisbatlarini baholash orqali samaradorlikni tavsiflaydi.

Prognoz ko'rsatkichi = **6 634 ming so'm**, yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **10**.

2.7. Kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti - tashkilot xodimlarining soni qanchalik o'zgarib kamayganligini ko'rsatadi.

Koeffitsiyent haqiqatdagi holat bo'yicha hisoblanadi, muayyan salmog'i = **7**.

2.8. Energiya samaradorligi (ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida energiya xarajatlarining ulushi) - energiya samaradorligini energiya xarajatlari va ishlab chiqarish xarajatlari nisbati bilan tavsiflanadi.

Prognoz ko'rsatkichi = **0,1** yil yakuni bo'yicha salmoq o'lchovi = **8**.

Asosiy SMK ro'yxati bilan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 dekabrda 775-son qaroriga Ilova) ko'rsatkichlarning salmoq o'lchovi aniqlangan, belgilangan salmoq o'lchovini o'zgarishi vakolatli

boshqaruv organi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Qo‘shimcha SMKning salmoq o‘lchovini korxonada mustaqil ravishda ishlab chiqadi.

6. ISH HAQI

Korxonaning mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi bilan kelishilgan holda mehnatga haq to‘lash to‘g‘risidagi Nizomlarga muvofiq shakllantiriladi.

8-ilovada Ish haqi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

2024-yilda 2023-yilga nisbatan ish haqi jamg‘armasining (IHJ) jami 6 foizga o‘sishi kutilmoqda.

7. “O‘ZAERONAVIGATSIYA” MARKAZI DUK FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Korxonada O‘zbekiston Respublikasi havo hududiga foydalanuvchilarni jalb etish va noishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha doimiy asosda ish olib boradi.

Korxonada doimiy ravishda xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha asosiy Radio Texnik Ta‘minoti obyektlarini modernizatsiya qilish jarayonida foyda keltirmaydigan uzoq masofalarda joylashgan obyektlarni yopish, Havodagi Harakatni Boshqarish Markazlarining Toshkent hamda Samarqand Havodagi Harakatni Boshqarish Avtomatlashtirilgan Tizimi Markazlaridan havodagi harakatni boshqarish funksiyalarini o‘tkazish orqali kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va shu kabi boshqa tadbirlarni izchil amalga oshirib kelmoqda.

Direktor



D. I. Djumayev